

2022-yil 26-aprel

“CHIRCHIQ” KIMYO-INDUSTRIAL TEXNOPARKIGA BIZNES-TUR TASHKILLASHTIRILDI





25-aprel kuni poytaxtimizda boshlangan "INNOPROM Markaziy Osiyo" xalqaro yirik sanoat haftaligi doirasida Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida joylashgan "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkiga biznes-tur tashkillashtirildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo'yicha o'rinbosari - investitsiyalar va tashqi savdo vaziri S.Umurzoqov, Rossiya Federatsiyasi sanoat va savdo vaziri D.V.Manturov boshchiligidagi Rossiya Federatsiyasining hududlar rahbarlari va ishbilarmon doiralari vakillari, Ozarbayjon hamda Armaniston delegatsiyalari, qolaversa, xalqaro sanoat haftaligining qator xorijlik mehmonlari ishtirok etishdi.



CHIRCHIQ
TEXNOPARKI

Инженерно-индустриальный Технопарк
"Чирчиқ"





Biznes-tur davomida texnoparkining ishlab chiqarish obyektlari bo‘ylab sayohat, O‘zbekiston Respublikasi va “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkining investitsion salohiyati, xorijlik investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, shuningdek, texnopark rezidentiga aylanish tartibi, ularga beriladigan soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalari haqida taqdimotlar o‘tkazildi. Tadbir yakunlari bo‘yicha Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar, Rossiya Federatsiyasi va uning hududlari bilan ham yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, shu jumladan, texnopark hududida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish kabi istiqbolli loyihalar yuzasidan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish rejalashtirilgan.



Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz texnoparkning umumiy maydoni 31,22 ga bo'lib, birinchi bosqichda 14 ta korxonalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi kutilmoqda. Bu yerda yiliga har xil turdagi 100 dan ortiq maxsulotlar ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan. Texnopark to'liq ishga tushishi natijasida 2 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari tashkil etiladi. Shuningdek, yiliga texnoparkda ishlab chiqarilgan 15 million dollarlik maxsulotlar eksport qilinadi. Texnopark ekologik talablarga javob beradigan, ta'bir joiz bo'lsa, "yashil" korxonalardan biri bo'lishi bilan ham ahamiyatlidir.

“O'zbekimiyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-industrial-texnoparkiga-biznes-tur>